

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI NUKUS FILIALI
XALQ CHOLG'ULARINING IJODIY FAOLIYATI

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali "umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar" kafedrasida "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 1- kurs talabasi Madrimova To'xtajon

Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna

Annotatsiya: *ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali ochilishi, va orkestri haqida so'z boradi shuningdek, yildan yilga orkestr jamoalarning ortishi va qoraqalpoq musiqa madaniyatining keng miqyosda tarqalishi haqida.*

Kalit so'zlari: *orkestr, musiqa, kompozitor, ijrochilik, bilim, san'at, konsert, xalq cholg'ulari, asar.*

Аннотация: *В данной статье говорится об открытии Нукусского филиала Узбекской государственной консерватории в Республике Каракалпакстан и оркестра, а также ежегодном увеличении оркестровых ансамблей и широком распространении каракалпакской музыкальной культуры.*

Ключевые слова: *оркестр, музыка, композитор, исполнение, знание, искусство, концерт, народные инструменты, произведение.*

Abstract: *This article talks about the opening of the Nukus branch of the Uzbekistan State Conservatory in the Republic of Karakalpakstan and the orchestra, as well as the year-by-year increase in orchestra ensembles and the wide spread of Karakalpak music culture.*

Key words: *orchestra, music, composer, performance, knowledge, art, concert, folk instruments, work*

Musiqa shunday narsaki u inson ongini boshqarishga qodir, musiqa bu ijodkorning insonga ayta olmagan va aytmoqchi bõlgan so'z va ohangidir. Bir

soʻz bilan aytganda musiqa qalb tili, u insonning ichki dunyosini yaqqol kòrsatib bera oladi. Odamzod yaratilibdiki, dunyoviy bilimlardan tashqari musiqa ilmi ham chuqur oʻrganilib kelinmoqda. Bugungi kunga qadar, musiqa ilmi barcha sohalarga kirib bordi. Alohida bilim sifatida hali hamon oʻrganilib kelinmoqda. Borliqni ohanglar bilan ifodalovchi kompozitor va bastakorlar, ranglar jilvasini aks ettiradiganlar rassomlar, tuproqdan moʻjizalar yaratuvchi kulollardir. Bularning barchasi bir sanʼat olamining xizmatchilaridir. Ijrochilik amalyoti tarixiga yuzlanar ekanmiz, xalq cholgʻulari orkestri professional jamoalarning shakillanishiga, rijovlanishiga oʻzining sezilarli taʼsirini namoyon eta olgan. Vaqt oʻtgan sayin orkestr jamoalarining xilma xilligi kengayib bordi. Bunda Gʻarbiy Yevropa madaniyatining katta taʼsiri bor. Oʻz navbatida bunday ijobiy taʼsir jarayonlari xalq cholgʻulari orkestri rivojida ham beqiyos oʻzgarishlarni ijrochilik maktablari bilan tanishish, xalq cholgʻulari orkestrining keng tarqalishi imkoniyatini yaratib beradi.

Oʻzbekistonda birinchi oʻzbek orkestrining ochilishiga oʻz hissasini qoʻshgan siymolardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy hisoblaniladi. A. Odilovning Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi kitobida keltirishicha “Hamza Hakimzoda Niyoziy” Fargʻonadagi birinchi oʻzbek damli cholgʻular orkestrining tashkilotchisi boʻlib 1916-yil bu orkestirda musiqa sanʼatida alohida etibor bergan holda oʻzbek yoshlari orasida musiqa havaskorlarini cholgʻu ijrochilgiga oʻrgatgan ustozdir, shuningdek Qoraqalpoq xalq cholgʻulari orkestrini tuzish masalasini olib chiqan inson, Toshkent davlat konservatoryasini gʻijjak cholgʻusi boʻyicha tugatgan xamda kompazitorlik darslaridan tahsil olgan 1957-yili Toshkent shahrida (Qoraqalpoq adabiyoti va madaniyati) oʻn kunligi oʻtkazish kerak boʻladi. Shu oʻn kunlikka qoraqalpoq xalq cholgʻulari orkestrni olib borish kerakligi masalasi ilgari suruldi. Orkestrni tashkil qilish uchun qoraqalpoq xalq cholgʻularining temperatsiyasini¹ ishlash kerak boʻladi. Tovushlarning baland pastlik munosabatlarni qisman oʻzgartirish bilan

¹ Temperatsiya – musiqa tovush qatori pogʻonalari orasidagi intervallar nisbatlarini tekislash.

temperatsiyaga erishiladi 1956 – yili shu masala bo'yicha, ya'ni dutor cholg'u asboblari qaytadan tamirlash uchun Toshkent davlat konservatoryasi qoshidagi eksperimental laboratoriyaning tajribali rahbari, professor A.I.Petrosyans va Didenkolar Nukus shahriga kelib, Japaq baxshi Shamuratov hamda A.Sultanov va Q.Ayimbetovlar bilan birgalikda tekshiruvdan o'tkazadi. Japaq baxshining dutor pardalarini tebranish chastotalarin o'lchab, dutor haqidagi ma'lumotlarni A.I. Petrosyans Toshkentga olib ketadi va tez orada qayta rekonstruktsiya qilingan dutor asbobini olib keladi. Qayta tayyorlangan dutorning ovoz balandligi sifat jihatidan ortdi. Dutor asbobini xalq cholg'ulari orkestri qatoriga qo'shishadi va uni kichik orkestr tarkibiga ham qo'shib ikki, uch asarni hokimyat rahbarlari, yozuvchilar bastakorlarga chalib ko'rsatishadi. Shu yili kuz oylaridan boshlab Toshkent shahrida o'tkaziladigan "Qoraqalpoq adabiyoti va madaniyati" o'n kunligiga tayyorgarlik boshlanadi. Ushbu o'n kunlikka xalq cholg'ulari orkestri ham qatnashdi orkestrni tashkil qilish kompozitor A.Sultonovga topshirildi. Davlat filarmoniyasida, madaniyat uylarida ishlab kelayotgan va havaskor sozandalar, musiqa maktabining o'qituvchi va o'quvchilari orkestr tarkibiga kiritildi. O'n kunlikka "Qoraqalpoq rapsodiyasi" va "Bog'bon qiz" asarlari tayyorlana boshlandi. 1957-yili hukumat qarori bilan Berdaq nomidagi filarmoniya yonida 24 kishidan iborat xalq cholg'ulari orkestri tashkil etildi. Yildan yilga orkestr jamolarning ortishi qoraqalpoq musiqa madaniyatining keng miqyosda tarqalishni aytsak ham bo'ladi. Xozirda yildan yilga yosh avlodning musiqaga bo'lgan qiziqish ortmoqda shu sababdan musiqa va san'at bilim yurtlari ko'paymoqda har yil iste'dodli yoshlar o'qishni bitkazib, Oliy bilim yurtlariga topshirib o'z bilim darajalarni yanda oshirib mukammal mutaxassis bo'lib chiqishyabti shunga misol qilib o'z foliyatni olib borayotgan oliy talim dargohlaridan biri ochildi.

Vazirlar mahkamasining 2021 – yil 5 - aprel kunidagi 186- sonli qaroriga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali ochildi. Bu quvonchli voqia qoraqalpoq yoshlari uchun balki butun O'zbekiston Respublikasi miqiyosidagi yoshlar uchun ham imkoniyatlar o'chog'i

bo'ldi. Muhtaram Prezidentimizning Qoraqalpoq madaniyati va san'atiga bo'lgan alohida e'tibori tufayli, biz yoshlarga shunday imkoniyatlarni ishonch bilan yaratib bermoqda. O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filialining 2021-yili 6- sentabirda ochilish marosimi tashkil qilindi. Bunda talabalik onlariga endigina qadam qo'yayotgan yoshlaridan tuzilgan orkestr jamoalari ishtirok etdi. Jumladan xalq cholg'ulari orkestri va simfonik orkestr va ansambl jamoalari ham qatnashdi.



O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filialining 2021- yili 6-sentabirda ochilish marosimi tashkil qilindi.

Asosan xalq cholg'ulari orkestri kamida 26 ta sozandadan iborat bo'lishi kerak, lekin endigina 14 talabadan tashkil topgan xalq cholg'ulari orkestri afsuski talabga javob berolmas edi, chunki cholg'u asboblarning kamligi ijro qilinayotgan asarlarning asil mohiyatini tinglovchilarga yetkizib berolmasligi sababidan dirijyor Nasipboy Alekeev orkestr uchun Yoshlar kamer orkestri sozandalarini jalb qildi. 1 yil mobaynida, Yoshlar orkestr bilan hamjihatlikda ko'p joylarda va davlat tadbirlarida bir birdan go'zal kuy qo'shiqlarni ijro qilib xalqimiz qalbidan joy olib kelishgan. Ijro qilinayotgan asarlarni asosan Nasipboy Alekeev orkestrga notalashtirib kelar edi. O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filialida o'qtuvchilar kuniga bag'ishlangan konsert dasturi tashkil qilindi, va unda qoraqalpoq suvitasi, ko'plab xalq kuylaridan tashkil topgan popuriy, "Adinnan", "Chardash", "To'fon" va boshqa xalq kuylarni ijro qilishdi shuningdek, Berdaq nomidagi tiyotirda 8 – dekabr kuni Konistutsiyaga kuniga

bag'ishlangan konsert dasturi ham xalq cholg'ulari ijrosida o'tkazildi. Noyabr oyida O'zbekiston davlat madaniyat va san'at instituti xalq cholg'ulari kafedrasini mudiri Shuxrat medali sohibi dotsent, bastakor, dirijor Rajabov Xikmat Jumayevich konservatoriyamiz orkestri bilan mahorat darslarini o'tish uchun tashrif buyurdi.



O'zbekiston davlat madaniyat va san'at instituti xalq cholg'ulari kafedrasini mudiri shuxrat medali sohibi Datsen, Bastakor, dirijor Rajabov Xikmat Jumayevich Konservatoriyamiz orkestri bilan mahorat darslarini o'tish uchun tashrif buyurdi


1 hafta mobaynida orkestr bilan mahorat darslarini o'tib Qoraqalpoq kuylarini va o'z repertuaridagi asarlaridan tuzilgan konsert dasturini tashkil qildi. Bu konsertda ijro qilingan asarlardan "Mangu harakat", "So'zsiz qo'shiq" "Chardash", "Aydinlar", "Toshkent oqshomi", "Altin ko'l" asarlari ijro qilindi. shu o'rinda 2022 – yilga kelib orkestrda talabalar soni 28 taga yetdi, konsert dasturlari ko'paydi 2022- yil 19- fevral kuni Qoraqalpog'iston telekanalida "Saz sawbet" ko'rsatuvida ishtirok etishdi, ko'rsatuv jonli efirda olib borildi. 2022- yil 2023- yillarda Rajabov Xikmat Jumayevich Nukus filialiga o'qituvchi lavozimida ishlashga taklif etiladi va shu yildan boshlab Rajabov Xikmat



Qoraqalpoq kuylarni va o'z repertuvalidagi asarlaridan tuzilgan konsert dasturni tashkil qildi

Jumayevich o'qtuvchi lavozimida o'z ish foliyatni yurita boshladi yildan yilga iste'dodli talabalar soni ortib bordi xalq cholg'ulari orkestrda 18 o'quvchi qo'shildi talabalar soni ko'paygani bilan orkestr jilosi yanada ortdi shuningdek 2023 yili 21- sentabr kuni Berdak nomli badiiy saroyida konsert dasturi bo'lib o'tdi Ahamiyatlisi oliy ta'lim ilm inovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan ushbu konsertda ham xalq cholg'ulari orkestri qatnashdi. O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali o'ziga xos san'at sohasida qilinayotgan ilmiy salohiyat va ijodiy salohiyat kundan kunga avj olib rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda aytish kerakki filial talabalardan tashkil topgan "Xalq cholg'ulari orkestri", "Simfonik orkestr" jamoalari bilan birgalikda davlat tadbirlarida, televideniyalarda o'z ijodiy chiqishlari bilan qatnashib kelishmoqda Konservatoriyaga Tatariston, Fransiya, Turkiya davlatlaridan kelgan mehmon kompozitor va san'atkorlarni kutib olib ularda ijobiy ta'surotlarni uyg'otib kelmoqda. Kuni kecha R.Allanbaev Qozog'iston konservatoriyasida bo'lib mahorat darslari o'tkazib, H.Rajabov bilan ham birgalikda Tojikistonda bo'lib konsert dasturlari, bilim va tajribalarini almashib keldilar. Konservatoriya kun sayin kompozitorlar shu bilan shoirlar, bastakorlar nazariga tusha boshladi. 2024yil 8-aprel kunida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi va

shoir Bobur Bobomurod tashrifi bo'ldi shu boyis orkestrimiz o'zining chiqishlarni va shoir she'rlaridan parchalar o'qildi filialimizning yana bir yutuqlaridan biri 2024yil 17-may kuni bo'lib o'tgan "Jayxun to'lqinlari" Respublika xalq sozlari orkestri festivali keng miqyosda o'tkazilib, festivalda Zulfiya nomidagi davlat institutining a'zosi, O'zbekiston Oliy Majlisning quyi palatasi ilm, bilimdorlik, madaniyat va badiiy san'at masalalari qo'mitasi a'zosi, professor Oydin Abdullayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, professor Komiljon Shermatov, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi dotsenti G'ayrat Abrorov hamda O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi dotsenti Botir Dosimbetovlar festival hayat a'zolari bo'lib qatnashishdi. Festival ishtirokchilari 2 guruhga bo'lingan tarzda o'z mahoratini sinab ko'rishdi. Bunda birinchi guruh - bolalar musiqa va badiiy san'at maktablari hamda musiqa san'at maktab-internat o'quvchilari, ikkinchi guruhda Oliy o'quv yurtlari ixtisoslashtirilgan badiiy va ma'rifiy maktablar va professional jamoalar ishtirokida yorqin tarzda bo'lib o'tdi . Birinchi guruhda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi jami 24 bolalar musiqa va badiiy san'at maktablaridan 10 ta bolalar musiqa va badiiy san'at maktabi ishtirok



etdi .

“Jayxun to'lqinlari” Respublika xalq sozlari orkestr festivali

Bular: No'kis shahri 1-son, To'rtkul rayoni 3-son, Xo'jeli rayoni 5-son, Beruniy rayoni 6-son, Amiudara rayoni 9-son, Karaozek rayoni 16-son, Taxtako'pir rayoni 17-son, Kanlikol rayoni 19-son, Amudaryo rayoni 21-son, Nokis shahri 22-son bolalar musiqasi va badiiy ijodkorlar maktab xalq musiqa orkestrlari. O'zbekiston davlat badiiy san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston davlat universiteti, Nukis ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi, O'zbekiston davlat filarmoniyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali xalq cholg'ulari orkestri 400 dan ortiq ziyoli musiqachilardan iborat orkestr jamoasi birgalikda qatnashishdi Qoraqalpog'iston tarixida birinchilardan bo'ldi. Festivalda filialning o'qituvchisi, kompozitor R. Abatbayevaning "Jayhun to'lqinlari" asari. Rajabov boshchiligida birinchi guruh ishtirokchilari tomonidan birinchi marotaba ijrosi amalga oshirdilar Festivalda 400dan ortiq sozandalar qatnashishdi. Birinchi o'rin O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali xalq sozlari orkestri qo'lga kiritishdi. Xozirga kelib orkestr o'quvchilar soni 67 ga yetdi hozirda orkestr 2 guruhga bo'lingan holda darslar olib borilmoqda, 1 guruh 49 ta 2 – guruh 18 tadan iborat. Shuningdek kechagi kunda bo'lib o'tkan O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nokis filialida Ayt, sen Ajiniyazning qo'shiqlaridan! nomli konsert dasturi bo'lib o'tdi Hurmatli Prezidentimiz nashri bilan XIX asrning qoraqalpoq adabiyoti namoyandalari, xalqimizning sevimlisi Ajiniyazning 200 yilligi YUNESKO doirasida xalqaro miqyosda nishonlanayotgan yubileylar qatoriga kiritildi. 23-oktyabr kuni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqa teatrida Qoraqalpoq adabiyotining klassik shoiri Ajiniyaz Kosybayovichning 200 yilligi munosabati bilan "Ayt, sen Ajiniyazning qo'shiqlaridan!" nomli konsert dasturi namoyish etildi. Konsertda orkestrimiz "Pariy" "Bir janon" Ko'zlarim, jaqsi, shuningdek Xikmat Rajabovning armonli dunyo, asarlarni ijro qilishdi. Nukus filiali direktori R.Allanbayev o'z fikrini bildirdi. O'z so'zida u shoirning hayoti va asarlarining nafaqat qoraqalpoq adabiyoti, balki o'zbek, qozoq, turk va boshqa turkiy xalqlar va dunyo adabiyotida tutgan o'rni, XIX asrdagi qoraqalpoq adabiyotida Ajiniyazning ahamiyati haqida aytib o'tdi